

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA VOKAL-XOR HAMDA CHOLG'U
IJROCHILIGINI SHAKLLANTIRISHDA O'ZBEKISTON TARAQQIYOT
STRATEGIYASINING O'RNI**

Dilmurodjonova Diyora Sherzod qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Tursunova Xusnora Botirjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida umumta'lismaktablarida vokal-xor va cholg'u ijrochiligi yo'naliishlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Maktab o'quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirish, milliy madaniyatga hurmat ruhini singdirish hamda musiqiy ijodkorlikni rag'batlantirishda ushbu yo'naliishlarning tutgan o'rni ochib beriladi. Maqolada innovatsion metodikalar, raqamlı texnologiyalar va kadrlar tayyorlash masalalari Taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'naliishlari bilan uzviy bog'liq tarzda yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Taraqqiyot strategiyasi, estetik tarbiya, vokal-xor ijrochiligi, cholg'u san'ati, milliy qadriyatlar, musiqa ta'limi, umumta'lismaktablari, madaniy meros, innovatsion metodika, pedagogik yondashuv.*

**THE ROLE OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF UZBEKISTAN IN
THE FORMATION OF VOCAL-CHOIR AND INSTRUMENTAL
PERFORMANCE IN COMPREHENSIVE SCHOOLS**

Annotation: *This article analyzes the theoretical and practical foundations of the development of vocal-choir and instrumental performance in comprehensive schools within the framework of the Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2022–2026. The role of these areas in the formation of aesthetic education in schoolchildren, instilling a spirit of respect for national culture, and encouraging*

musical creativity is revealed. The article covers the issues of innovative methodologies, digital technologies, and personnel training in an inextricably linked way with the priority areas of the Development Strategy.

Keywords: *Development strategy, aesthetic education, vocal and choral performance, instrumental art, national values, music education, secondary schools, cultural heritage, innovative methodology, pedagogical approach.*

РОЛЬ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА В ФОРМИРОВАНИИ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО И ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация: В статье анализируются теоретические и практические основы развития вокально-хорового и инструментального исполнительства в общеобразовательных школах в рамках Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы. Раскрывается роль этих направлений в формировании эстетического воспитания школьников, воспитании духа уважения к национальной культуре, поощрении музыкального творчества. В статье освещаются вопросы инновационных методик, цифровых технологий, подготовки кадров в неразрывной связи с приоритетными направлениями Стратегии развития.

Ключевые слова: Стратегия развития, эстетическое воспитание, вокально-хоровое исполнительство, инструментальное искусство, национальные ценности, музыкальное образование, общеобразовательные школы, культурное наследие, инновационная методика, педагогический подход.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar mamlakatning taraqqiyot strategiyasi asosida olib borilmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" Taraqqiyot strategiyasida madaniyat va san'atni rivojlantirish, yoshlar ongida milliy qadriyatlarni mustahkamlash, ularning estetik dunyoqarashini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu munosabat bilan, umumta'lif maktablarida vokal-xor hamda cholq'u

ijrochiligi yo‘nalishlarining rivojlanishi nafaqat estetik tarbiya balki ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotning ham ajralmas qismiga aylanmoqda. O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 4-yo‘nalishida — “Ma’naviy taraqqiyot, milliy g‘oya va qadriyatlarni keng targ‘ib qilish”da, yoshlarni vatanparvarlik, san’at va madaniyat orqali tarbiyalash masalasi ilgari surilgan. Bu esa umumta’lim maktablaridagi musiqa ta’limining mazmuni va shaklini yangilash zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, vokal-xor va cholg‘u ijrochilagini o‘quv dasturlariga kiritish orqali o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish imkoniyati tug‘iladi.

METADALOGIYA

Xor ijrochiligi bolalar ongida jamoaviylik, birdamlik, hamnafaslik tushunchalarini shakllantiradi. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan “har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish” maqsadi doirasida vokal-xor mashg‘ulotlari ijtimoiy-psixologik jihatdan muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, xor asarlarida milliy kuy-qo‘shiqlardan foydalanish o‘quvchilarning milliy o‘zligiga hurmat bilan qarashiga xizmat qiladi. Taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish alohida ta’kidlangan. Bu borada raqamli texnologiyalar, virtual cholg‘ular, musiqiy dasturlar va ilovalardan foydalanish orqali vokal-xor va cholg‘u mashg‘ulotlarini zamon talablari darajasiga ko‘tarish mumkin. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni o‘rganish, xorijiy metodikalarni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. “Yangi O‘zbekiston” Taraqqiyot strategiyasi doirasidagi islohotlar (2022–2026)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi farmoni bilan qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasida madaniyat va san’atni ommalashtirish, yoshlarni estetik tarbiya orqali komillikka yetaklash asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Mazkur strategiyaga asosan, maktablarda musiqa ta’limini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, darsliklar, metodik qo‘llanmalar va jihozlar bilan ta’minalash ishlari boshlangan.

2. Madaniyat va san’at maktablari bilan hamkorlik tizimini joriy etish

Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi samaradorligini oshirish maqsadida ularni hududiy madaniyat va san’at maktablari bilan integratsiyalashgan holda olib borish mexanizmi joriy qilindi. Buning natijasida o‘quvchilar musiqa bo‘yicha

ixtisoslashtirilgan darslarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lib, xor va cholg'u to'garaklari tashkil etilmoqda.

3. Ijod maktablari va Prezident maktablarida san'atga alohida e'tibor

2019–2023 yillarda tashkil etilgan Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalarida vokal va cholg'u ijrochiligi uchun maxsus studiyalar, audio jihozlar va cholg'ular bilan jihozlangan musiqa xonalari tashkil qilindi. Bu tajriba umumta'lim maktablariga bosqichma-bosqich tatbiq qilinmoqda.

4. O'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari

Musiqa fani o'qituvchilari uchun maxsus qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yildi (pedagogik malaka markazlari, oliy ta'lif muassasalari bilan hamkorlikda). Ayniqsa xor rahbarligi va cholg'u metodikasi bo'yicha trening va seminarlar tashkil etilmoqda.

5. Cholg'u asboblari va texnik ta'minot bilan ta'minlash

2020-yildan boshlab maktablarda musiqa faniga ixtisoslashgan xonalarni tashkil etish va ularni milliy va zamonaviy cholg'u asboblari bilan jihozlash bo'yicha budget va homiylik asosida loyiha amalga oshirilmoqda. Elektron sintezatorlar, kompyuterli ovoz yozish texnologiyalari, interaktiv dars dasturlari joriy qilinmoqda.

6. "Musiqa va madaniyat" haftaliklari

Har yili o'quv yilining muayyan bosqichlarida "Musiqa va madaniyat" haftaliklari tashkil etilib, matab xor jamoalari, cholg'u ansamblari va yakka ijrochilar uchun tanlov va ko'rgazmalar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ta'lif sifatini oshirish, ayniqsa, chekka hududlardagi maktablarni oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu, o'z navbatida, musiqa ta'limi, jumladan, vokal-xor va cholg'u ijrochiligi yo'nalişlarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Cholg'u ijrochiligi, ayniqsa an'anaviy milliy cholg'ular (doira, dutor, tanbur, rubob va h.k.) orqali o'quvchilar xalqimizning boy musiqa merosi bilan tanishadilar. Taraqqiyot strategiyasida "madaniy merosni asrash va uni yoshlar orasida targ'ib qilish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bois, maktablarda cholg'u to'garaklarining faol tashkil etilishi orqali nafaqat merosni asrash, balki ijodiy yangilanishlarga yo'l ochiladi. Bolalar musiqa va san'at maktablarida vokal-xor ijrochiligi an'analarini davom ettirish va rivojlantirish

muhim ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda bolalarda musiqa madaniyatini shakllantirish, milliy va jahon musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazish maqsad qilingan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish alohida ta'kidlangan. Bu borada raqamli texnologiyalar, virtual cholg'ular, musiqiy dasturlar va ilovalardan foydalanish orqali vokal-xor va cholg'u mashg'ulotlarini zamon talablari darajasiga ko'tarish mumkin. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni o'rghanish, xorijiy metodikalarni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Cholg'u ijrochiligidagi ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, ayniqsa, doira ijrochiligi rivojida muhim hisoblanadi. Bu borada ta'limning barcha bosqichlarida yagona metodik yondashuvni qo'llash zarurati mavjud. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish zarurati mavjud. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, umumta'lim maktablarida vokal-xor va cholg'u ijrochilagini rivojlantirish O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu jarayon o'quvchilarda estetik didni shakllantirish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ijtimoiy faoliyat va ijodkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishdagi izchil va tizimli islohotlar mamlakat madaniy hayotini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni. (2022-yil, yanvar)
2. G'ulomov, A. "O'zbek musiqasi tarixi va nazariyasi." – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Jo'rayev, S. "Musiqa ta'limida innovatsion texnologiyalar." – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Karimova, N. "Bolalarda estetik tarbiya: nazariy va amaliy yondashuvlar." – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
5. UNESCO. Arts Education in the School Curriculum: Issues and Trends. Paris, 2017.
6. Qodirov, B. "Milliy cholq'u asboblari va ularning pedagogik imkoniyatlari." – San'at, 2020(4), 55–60-betlar.